

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O’QITUVCHILARINI MUSTAQIL  
TA’LIM JARAYONIDA IJODIY QOBILIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Xalqaro nordik universiteti Yoshlar ishlari va talabalarga xizmat**

**ko‘rsatish**

**Tyutor lavozimi**

**Abdurasulova Atirgul Miktibayevna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo‘layotgan texnologiya fani o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada ijodiy qobiliyatning ta’rifi, uning psixologik jihatlari va texnologiya fani o‘qituvchilari uchun bu qobiliyatning o‘ziga xosligi tahlil qilinadi. Texnologiya fani o‘qituvchisi uchun ijodiy qobiliyatni shakllantirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda va o‘quvchilarga ta’lim berishning innovatsion usullarini o‘rgatishda katta ahamiyatga ega.

Maqolada ijodiy fikrlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va yangiliklarga moslashuvchanlik kabi psixologik jihatlar alohida ta’kidlanadi. O‘qituvchining kreativ qaror qabul qilish, tasavvur va mental fleksibilitasi ham ijodiy qobiliyatni shakllantirishda muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonida texnologiya fani o‘qituvchisining psixologik tayyorligi, yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorligi va o‘z-o‘zini baholashning ahamiyati haqida ham so‘z boradi.

Maqola, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik metodlarni aniqlash, ularga yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llashga oid tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu texnologiya fani buyicha mustaqil ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari va uning ijobiy jihatlari ko‘rib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxs xarakteri, bir tizimga rioya qilish, tirishqoklik, ijodkorlik, qobiliyatlarini nomoyon qilish, maqsad sari intilish, ishlash, ovqatlanish, badan

tarbiyasi.

Ummumta'lim maktablarda texnologiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi Davlat ta'lim standarti (DTS) asosida tashkil etish, o'qitish va pedagogika, psixologiya kabi maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish zarur. Bundan tashqari, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini metodikaga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

Bugungi kunda bilamizki ijodkor mutahasis kadrlarni tayyorlashda, ularni zamon talablariga javob beradigon yuqori malakali, ongli, mustaqil fikirlovchi qilib tarbiyalashimiz zarur. Shundagina, oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz mumkin. Yosh avlodninig yetuk barkamol shaxs qilib shakllantirishda esa pedagogik -psixologik bilimlarning o'rni beqiyosdir.

Mustaqillikga keladigan bo'lsak, shaxs xarakterining ijobiy xususiyatlaridan biri u inson tafakkuri tizimida, turli ko'rinishdagi faoliyatlar va harakatlarida nomoyon buladi.

Mustaqil ishslash har bir o'quvchidan ma'lum bir tizimga riosa qilish, ijodkorlik, tirishqoklik, qobiliyatlarini nomoyon qilish va maqsad sari intilishni talab etadi. Shuningdek, o'quvchilarda mакtab kundaligini to'g'ri taqsimlashga o'rgatish lozim. Chunki, ba'zi mакtab o'quvchilari o'rganilayotgan materiallarni yetarli o'zlashtirib olish uchun vaqt yetashmasligi va o'qituvchisi, ota-onalar tomonidan yuklamalar ko'pligidan shikoyat qilinadi. Shuning uchun ham, o'z vaqtini to'g'ri taqsimlay olish, mustaqil ishslashda kun tartibiga qatiy riosa qilish, har bir daqiqasining qadriga yetish, oldiga quygan maqsadlariga amal qilgan holda ish boshlashga o'rgatish lozim.

Kun tartibini o'quvchi maqsadga muvofiq tarzda tuzish uchun quyidagicha ish yuritish kerak. Bir sutkani bir qancha turga bo'linadi.

Bunlar; o'z ustida ishslash, ovqatlanish, badan tarbiya, dam olish, xordiq chiqarish, xo'jalik ishlari va shu kabilar kiradi.

Kun tartibi tuzishdan maqsad har bir o'quvchining ma'lum tartibda ish olib borish, hech narsani esdan chiqarmay, hamma narsaga vaqt ajratish, har bir ishni o'z muddatida bajarishga o'rgatishdan iboratdir. Kun tartibini har bir kishi o'zining

shaxsiy fiziologik imkoniyatlaridan chiqibgina emas, balki umuminsoniy qonun-qoidalarga qarab ham tuzish mumkin.

Agar miyaga dam berilmay, yuklama bilan ishlayverilsa, asab xujayralariga va butun asab tizimiga zo'riqish bo'lishi mumkin. Bunday sharoitlarda har qanday ish faoliyati to'xtalib dam olish maqsadga muvofiqdir. Teatr, kino, she'rxonlik, kitob mutaaolasi, istarohat bog'larida sayr qilish, tabiat manzaralaridan bahra olish, sayrlarda bo'lish— bularning hammasi unumli mehnat qilishda ajoyib yordam beruvchi omildir.

Kun tartibini belgilashda vaqt meyorini rejalshtirish, o'quv mashg'ulotlar jadvali, o'quv dasturi, darsdan tashqari mashg'ulotlar jadvaliga asoslanib tuziladi. Binobarin, ana shu xujyatlar bilan tanishish, mustaqil ishlashni tashkil etish asosi va birinchi shartidir.

Har bir o'qituvchi, o'zining ish rejasiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun bir kunlik yoki bir oylik reja tuzib chiqiladi. Ushbu rejada bajariladigan ishlar mazmuni, kuni va vaqtি ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdagi o'quvchilar vaqtни to'g'ri taqsimlay olmasliklari natijasida mustaqil ish bajarishlari va ulardagi ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda muammolarga sabab bo'lmoqda. Ular tartib intizomga amal qilmasliklari, mustaqil ishlash va ijodiy yondasha olish bilan shug'ullanish yo'llarini bilmasliklaridir. Bunda o'quvchilarning kun tartibini tuzishga va unga amal qilishiga o'rgatishimiz zarur. Ular ertalab o'midan turganidan to uyquga ketgunicha ma'lum meyorda rejalarini tuzib chiqishlari kerak. O'rganganlaridan kunlik rejalarini takrorlanmagan xolda o'zgarib turuvchi va qayd etish lozim bo'lgan ma'lumotlarga yozib boriladi. Qilinadigan ishlarning kuni va vaqtি aniq belgilab olinishi kerak.

Kun tartibini tuzishda mustaqil ishlashi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishi uchun belgilangan soatlarda boshqa ishlar bilan band bo'lib uni bekorga o'tkazmaslik kerakligini, har 30-40 minutdan so'ng 10 minut hordiq chiqarish, 2,5-3 soatlik mashg'ulotdan so'ng esa, garchi charchamagan bo'lsangiz ham, yarim soat dam olish zarurligini e'tiborga olish kerak.

O'quvchilar o'qishdan tashqari ishlar uchun kuniga 4-4,5 soat vaqt ajratish zarur

va bu vaqgni 5-10 minutgacha aniqlik bilan taqsimlash mumkin, bunday aqliy mehnat gigiyenasi mezonlariga riosa qilish muhim ahmayatga ega va o‘quvchining ijodiy qobiliyati rivojlanadi.

Har kuni kechqurun bajarilgan ishlar tahlil qilinadi. O‘quvchilar bajargan ishlarida sustkashlikka yo‘l qo‘yilganini bo‘lsa, keyingi bosqichlarda o‘sha narsalarga tuzatishlar kiritishga harakat qilinadi. Qilinadigan ishlar tartibli ravishda belgilab chiqiladi va aqliy mehnatdan so‘ng jismoniy mehnat bilan shug‘ullangani yaxshi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003, TDPU,- 174 bet.
2. Avliyaqulov N.X., Musaev N.N. Pedagogik texnologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / a-Toshkent: Cho Mpon NMIU, 2012.208 b
3. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta’limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1993